

TURKISTON QO’MITASI BOSHQARUVIDA HARBIY-SIYOSIY OMILLAR

Valiyeva Nafisa Abdumajitovna

Namangan davlat pedagogika instituti dotsenti

E-mail: nafisavaliyeva6@gmail.com

Tel: +998905539181

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.22297435>

Annotatsiya. Mazkur maqolada Turkiston qo’mitasi faoliyatida harbiy-siyosiy omillarning tutgan o’rni tahlil qilinadi. Turkiston o’lkasida boshqaruv tizimini shakllantirish, siyosiy barqarorlikni ta’minlash hamda harbiy nazoratni kuchaytirishda qo’mitaning amalga oshirgan chora-tadbirlari yoritiladi. Shuningdek, markaziy hokimiyatning mintaqadagi siyosiy manfaatlari, harbiy boshqaruv mexanizmlari va mahalliy aholi bilan munosabatlarning o’ziga xos jihatlari tarixiy manbalar asosida tahlil etiladi. Tadqiqot natijalari Turkiston qo’mitasi faoliyatining harbiy-siyosiy xususiyatlarini yanada chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Kalit so’zlar: Turkiston qo’mitasi, Turkiston o’lkasi, harbiy boshqaruv, siyosiy omillar, Rossiya imperiyasi, mustamlakachilik siyosati, markaziy hokimiyat, ma’muriy boshqaruv, harbiy nazorat, tarixiy manbalar.

Аннотация. В статье анализируется влияние военно-политических факторов на деятельность Туркестанского комитета. Рассматриваются особенности формирования системы управления в Туркестанском крае, обеспечения политической стабильности и укрепления военного контроля. Особое внимание уделено политическим интересам центральной власти Российской империи, механизмам военно-административного управления и специфике взаимоотношений с местным населением. Исследование основано на анализе исторических источников и способствует более глубокому пониманию военно-политических особенностей деятельности Туркестанского комитета.

Ключевые слова: Туркестанский комитет, Туркестанский край, военное управление, политические факторы, Российская империя, колониальная политика, центральная власть, административное управление, военный контроль, исторические источники.

Abstract. This article examines the role of military and political factors in the administration of the Turkestan Committee. It analyzes the Committee’s contribution to the establishment of the administrative system, the maintenance of political stability, and the strengthening of military control in the Turkestan region. The study also explores the political interests of the central authorities of the Russian Empire, the mechanisms of military administration, and the nature of relations with the local population based on historical sources. The findings contribute to a deeper understanding of the military-political characteristics of the Turkestan Committee’s governance.

Keywords: *Turkestan Committee, Turkestan Region, military administration, political factors, Russian Empire, colonial policy, central authority, administrative governance, military control, historical sources.*

Turkiston qo'mitasi o'lka boshqaruvida o'z faoliyatini boshlagunga qadar ham turli jamoat tashkilotlari tashkil topib, 1917 yil martida Toshkentda zavod va fabrika, temir yo'l va boshqa tashkilotlarning kasaba uyushmalari tashkil etildi. Toshkentning Eski shahrida 400 nafar ishchini o'z ichiga olgan “Quruvchilar ittifoqi” paydo bo'ldi. 7 martda politsiya o'rniga xalq militsiyasi tuzildi. Umuman olganda, har bir shahar, uezd, volost, qishloq va posyolka (qo'rg'on)lardagi tugatilgan Turkiston general-gubernatorlik ma'muriyati o'rnida jamoat tashkilotlarining ijroiya qo'mitalari, ya'ni jamoat xavfsizligi qo'mitalari tashkil topa boshladi. 1917 yil 6 martida bo'lib o'tgan Toshkent ijroiya qo'mitasi saylanib, uning tarkibiga 19 nafar a'zo kiritildi.[1]

Joylarda ijroiya qo'mitalari bilan birga ishchi deputatlari va askar deputatlari kengashi tashkil etdi. 1917 yil 30 martida Toshkent ishchi va askar deputatlari hamda ijroiya qo'mitaning birlashgan majlisi qaroriga binoan A. N. Kuropatkin egallab turgan Muvaqqat hukumatning bosh komissari lavozimidan chetlatilib, uy hibsiga olindi. Ular 4 aprelda Turkistonni tark etdilar. A. N. Kuropatkindan keyin Buxorodagi Rossiya rezidentlari Miller va Shulgalar ham Petrogradga chaqirib olindi.[2]

1917 yilning boshlaridan “Sho'roi Islomiya”, “Turon”, “Ulamo”, “Ittifoq”, “Turk Adam Markaziyat” kabi, jami 20 ga yaqin milliy-siyosiy jamiyat va to'garaklar tuzildi. Xususan, 1917 yil 12 martidan boshlab o'z faoliyatini boshlagan “Sho'roi Islomiya”ning asosiy maqsadi Turkistonni tub yerli aholisi manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan edi. Milliy-siyosiy jamiyatlarning tuzilishida Munavvar Qori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Laziz Azizzoda, Mahmudxo'ja Behbudiy, Toshpo'latbek Norbo'tabekov, Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jaev, Mustafo Cho'qaev, G'ozi Yunusov va boshqa ziyolilarning hissalari katta bo'ldi. Albatta, yuqorida tashkil topgan milliy-siyosiy tashkilotlar Turkiston siyosiy-maydonida endi kirib kelib, o'lka xalqlari manfaatlari yo'lida qilayotgan sa'y-harakatlari bir maqsad yo'lida birlasha olmagan, siyosiy tajribalari kundan-kunga

shakllanayotgan edi. 1917 yil apreli o'rtalaridan o'z faoliyatini boshlagan Turkiston qo'mitasiga bo'lgan munosabat, milliy-siyosiy jamiyatlarda boshqacha, ishchi, askar deputatlari kengashida o'ziga xosligi bilan ajralib turdi. Xususan, “Sho'roi islomiya” va “Ulamolar jamiyati” va uning rahbarlari, dastlabki paytlarda, Turkiston qo'mitasi faoliyatiga xayrixohlik bilan qarab, “Turkistonni kim idora qilsa ham, milliy-diniy avtonomiyani ro'yobga chiqarishga qarshilik qilmasa bo'lgani” deb hisobladilar.[3]

“Sho'roi Islomiya” 1917 yil “aprel oyida Toshkentda o'tkazilgan o'zining birinchi syezdida Turkiston komitetiga to'la ishonch bildirdi”. [4]

Mavjud arxiv manbalari va 1917 yil chop etilgan gazetalardagi ma'lumotlar shundan dalolat beradiki, N. N. Shepkin raisligidagi Turkiston qo'mitasi a'zolari boshqaruvini dastlabki kunlaridanoq, o'lka shart-sharoiti, tub aholi mentalitetini yaxshi bilmaganliklaridan, murakkab va ziddiyatli jarayonlar bilan to'qnashdilar. Chunonchi, Turkiston qo'mitasi oldida turgan muammolar quyidagilardan iborat edi:

-9 nafar Turkiston qo'mitasi a'zolaridan aksariyati uchun tub aholi tili, dini, geografik hududi, ishlab chiqarishi notanish edi;

-1917 yil fevral inqilobidan keyin vujudga kelgan milliy-siyosiy tashkilotlarining aksariyati va ishchi, askar deputatlari kengashi, ijroiya qo'mitalar Turkiston qo'mitasini qo'llab-quvvatlamadi;

-Turkiston qo'mitasi o'z faoliyatining dastlabki kunlaridanoq faqat Muvaqqat hukumat oldidagina hisob berishi, hech qanday jamoat tashkilotlari taklif va mulohazalarini hisobga olmas edi;

-o'lka, viloyat, uezd-shahar, uchastkalardagi boshqaruv tizimiga jamoat tashkilotlari bilan hisoblashmay, o'zi xohlagan harbiy-siyosiy kadrlarni komissarlik lavozimlariga tayinlagani;

-urush hamda 1916 yilgi Rossiya markaziy guberniyalariga yerli aholini safarbarligi sababli hamda inqilob tufayli o'zaro tovar almashtirish izdan chiqqani natijasida oziq-ovqat ta'minotiga putur yetgan edi;

-Turkiston qo‘mitasi o‘lka aholisinigina emas, balki shu mintaqada tartib-intizomni, markaziy hukumatga qarshi “bosh ko'tarmaslik” qo'lida ushlab turilgan harbiy qism askar hamda zobitlarini ham oziq-ovqat bilan ta'minlay olmaganligi;

-Turkiston qo‘mitasini Muvaqqat hukumat ruhsatisiz, hatto o‘lka shart-sharoitiga bog‘liq, alohida huquqiy me’yoriy hujjatlarni qabul qila olmasligi. Yuqorida keltirilgan sabablar Turkiston qo‘mitasini o‘lka hayotida to‘laqonli ishtirok eta olmaganligidan dalolat berib, bu aholini, harbiy-siyosiy kadrlarni noroziligi kundan-kunga ortib borishiga sabab bo‘lgan.[5]

Masalan, 1917 yil 20 aprelida Turkiston qishloq xo‘jalik jamiyati, Qishloq xo‘jalik kasaba uyushmalari xodimlari va ishlari ittifoqi, Toshkent uezd-shahar ijroiya qo‘mitasining birlashgan majlisida vujudga kelgan oziq-ovqat taqchilligi yuzasidan fikr-mulohazalar yuritildi, ocharchilikning sabablarini keltirib, Turkiston qo‘mitasidan yordam choralarini ko‘rishni, ahvolni ayanchli ekanligini Muvaqqat hukumatga yetkazish so‘ralgan. Ocharchilikni bartaraf etish yuzasidan Turkiston qo‘mitasiga maxsus jamg‘arma ajratish zarur deb, “Ocharchilikka qarshi kurash va boquvchisizlik” (“Ocharchilik qo‘mitasi”) komissiyasi zimmasida o‘z faoliyatini keng miqyosda olib borishi qayd etilgan. Birlashgan majlisda Turkiston qo‘mitasi nomidan aholiga murojaat qilib, foydalanilmay kelinayotgan yer uchastkalaridan foydalanish, o‘lkada ekishga urug‘lik yetishmasligidan kelib chiqib, Orenburg, Kavkaz va boshqa hududlardan yetarli miqdorda urug‘ olib kelish uchun tegishli mutaxassislarni safarbar qilish, keltiriladigan urug‘likni navbatsiz, poezdlar orqali kelishi ta'minlansin. Ayni paytda, N. M. Bulatov tomonidan armiya uchun tayyorlangan, ammo harakatdagi armiya ixtiyoriga olib ketilmagan 1 mln 500 ming pud kunjarani mahalliy chorvachilik ta'minotiga qaratilishi o‘lkadagi turli ishlar, g‘alla va yem-xashak tayyorlash uchun harbiy asirlardan bir qisminigina qoldirilsin, deb ta’kidlagan. [6]

Oziq-ovqat ta'minotidagi uzilishlar nafaqat Turkiston aholisiga, balki o‘lkadagi harbiy qismlarda ham ko‘zga tashlanadi. Xususan, 1917 yil 4 avgustida harbiy qismlarni oziq-ovqat ta'minoti yo'lida “ ...askar Kazakovni Farg'ona viloyat oziq-ovqat qo‘mitasi Orenburg va Samara guberniyalariga g‘alla bilan ta'minlash uchun safarga yuboradi... Turkistonda harbiy qismlarni oziq-ovqat ta'minotidagi muammolar ularning oilalarini ta'minotida ham o'z

aksini topgan. Xususan, Samarqand oziq-ovqat ko'rsatmasiga binoan, 1917 yil iyulidan harbiy xizmatchilar oilalariga, shu paytga qadar davom etib kelayotgan 1, 5 funt miqdordagi qandni berish to'xtatib qo'yilgan".[7]

Oziq-ovqat ta'minotidagi muammo Turkiston qo'mitasi uchun o'ta og'ir vazifalar qatorida turgan. O'lkaning ma'lum bir qismi mazkur muammo bilan to'qnashib, "bir burda nonini, rizqini" oh-voh qilib, "qopchi savdogar" lik yo'li bilan tirikchilikni zo'r-bazo'r o'tkazishga mahkum bo'lgan bir paytda, Turkiston qo'mitasi harbiylar va ularning oilalarini qo'llab-quvvatlash yo'lida "ilojsizlikdan... iloj topardilar". Masalan, Muvaqqat hukumat tomonidan 1917 yil 23 iyunida "Harbiy xizmatga chaqirilgan askarlarning nikohdan o'tmagan xotinlari, bolalari, onalari, aka-uka hamda opa-singillari hamda ular qaramog'idagi bolalarni boshpana va oziq-ovqat bilan ta'minlash to'g'risida" qaror qabul qilingan bo'lsa, Turkiston qo'mitasi yuqorida keltirilgan qarorni 1917 yil 8 iyulidan A. L. Lipovskiy imzosi ostida buyruq chiqarib, quyidagi mazmunda o'zgarishlar bilan kuchga kiritgan:

1. Harbiy xizmatga (Turkistondan-N. V.) chaqirilgan askarlarning nikohdan o'tmagan xotinlari, farzandlari va shuningdek, ularning homilador ayollari hamda bolalari, qonuniy oilalari qatori, bir xil oziq-ovqat payogi bilan ta'minlanishi huquqiga ega.
2. Askarlarning nikohsiz xotinlari va farzandi bo'lmagan xotinlari, agar ular harbiy chaqiruvga qadar kamida bir yil yashagan bo'lsalar hamda chaqiruvga jalb etilganning qaramog'ida bo'lgan bo'lsalar, unda ular ham oziq-ovqat payogi bilan ta'minlanadilar.
3. Harbiy xizmatga chaqirilgan askarning yozma arizasi bilangina, uning nikohsiz oilasi: xotini va bolalari oziq-ovqat oladiganlar ro'yhatiga kiritiladi. Mazkur ariza askar xizmat qilayotgan polk (harbiy qism) ma'muriyati-mudiri tomonidan askarning nikohsiz oilasi yashaydigan hududga yoki o'sha joyga yaqin oradagi harbiy boshliqlar tomonidan yetkaziladi.
4. Harbiy xizmatga chaqirilgan askar ixtiyorida, uning oilasi tomonidan asrab olingan bolalar bo'lgan taqdirda, agar ular shu erkak-ota ta'minotida bo'lgan bo'lsalar, ular ham oziq-ovqat payogi oladiganlar ro'yhatiga qo'shiladi.

5. Nikohsiz oila hamda asrandi bolalarni oziq-ovqat payogi bilan ta'minlashga oid mazkur (qaror) buyruq, bu kuchga kirmasdan avvalgi holatlarga ham taalluqli hisoblanadi.[8]

Yuqoridagi qaror mazmun-mohiyatidan ko'rinib turibdiki, Turkiston qo'mitasi uchun Muvaqqat hukumat ko'rsatmasi, har qanday mahalliy shart-sharoitdan ko'ra, ustivorlik kasb etgan.[9] Xususan, Turkiston qo'mitasi o'z faoliyati doirasida Markazdan berilgan har qanday qaror, farmoyishlarni, u yoki bu buyruq hamda ko'rsatmalarni “so'zsiz bajarish” harakatidan bo'lib, Muvaqqat hukumat bilan doimo “hisoblashgan”.[10] Markazdan berilgan ko'rsatmalar Turkiston shart-sharoiti, aholi mentaliteti manfaatlariga to'g'ri kelish-kelmasligidan tashqari, yuborilgan har qanday buyruq, qaror, farmoyishlar o'lkaga “moslashtirib”, ijro uchun qabul qilingan.[12]

Boshqacharoq ifodalaganda, Turkiston qo'mitasi o'z faoliyati doirasida mustaqil ish yurita olmas, ko'rayotgan chora-tadbirlari, qaror, buyruq, farmoyish hamda ko'rsatmalarini markaziy Muvaqqat hukumat bilan kelishgan holda amalga oshirgan.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Кравец Л., Исмаилова Ж. Тошкент Ўрта Осиёнинг революцион ҳаракат маркази. Тошкент: Ўзбекистон ССР “ФАН” нашриёти, 1983. -Б. 41;
2. Ўзбекистон тарихи (1917-1991 йиллар). Биринчи китоб. 1917-1939 йиллар. Тошкент “O'zbekiston” 2019. -Б.25
3. Абдурахимова Н., Рустамова Г. Колониальная система власти в Туркестане во второй половине XIX- I четверти XX в.в., Ташкент: «Университет»,1999. -С.92-93
4. Мингноров А. Туркистондаги ижтимоий-сиёсий жараёнларнинг миллий матбуотда ёритилиши. Тошкент: “Истиқлол нури”, 2013. -Б. 61-62
5. Ваҳобов М. Тошкент уч революция даврида. Тошкент: Ўзбекитсон ССР Давлат нашриёти, 1958. -Б.181-182
6. Туркестанское сельское хозяйство (журнал-ежемесячный), № 4-5. 1917. -С. 290-291
7. Туркестанское сельское хозяйство (журнал-ежемесячный), № 4-5. 1917. -С. 286-290
8. Расулов А., Режаббоев Н. Туркистонда очарчиликка қарши кураш. (1917-1924 йиллар). Тошкент: JAVOHIR-ILM-NASHR, 2025. -Б.49
9. Режаббоев Н. Туркистонда озиқ-овқат сиёсати. Тошкент: “TURON-IQBOL”, 2021. -Б.109-112
10. Туркестанские ведомости, 9 июля 1917 г

11. Туркестанские ведомости, 16 июля 1917 г